

JAMOAT BINOLARI INTERYERLARINING BADIY OBRAZINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Xudoyarova M.B.

Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti "Arxitektura" kafedrası dotsenti

Masaridinova N.A.

Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti "Arxitektura" kafedrası stajyor
o'qituvchi va mustaqil izlanuvchi

Qosimova F.A.

Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti

Annotatsiya. Maqolada jamoat binolari interyerida badiiy obrazlarni shakllantirish funktsiyaviylikni, estetikani, emotsional ta'sirni yaxlit va fazoni vazifasiga mos ravishda integratsiyalash muammolari ko'rib chiqilgan. Interyerning obrazini yaratishda funktsiya, material, an'anaviylik, milliy an'analar, assotsitsiya, ijtimoiy tizimlarning betakror usul va ma'noviy tuzilishini tarkibini aniqlobchi asos bo'lishi keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: obraz, funktsiya, material, milliy an'analar, shakl, assotsiatsiya, ijtimoiy tizim.

METHODS OF FORMING THE ARTISTIC IMAGE OF PUBLIC BUILDING INTERIORS

Khudoyarova M.B.,

Associate Professor, Department of Architecture, Samarkand State University of
Architecture and Construction

Masaridinova N.A.,

Trainee Lecturer and Independent Researcher, Department of Architecture,
Samarkand State University of Architecture and Construction

Kasimova F.A.,

Samarkand State University of Architecture and Construction

Abstract

The article examines the issues of integrating functionality, aesthetics, and emotional impact in the formation of artistic images in the interiors of public buildings, taking into account integrity and spatial objectives. The study highlights the fundamental principles that determine interior composition in the creation of an image, including function, materials, traditions, national customs, associations, and unique ways of organizing social systems and semantic structures.

Keywords: image, function, material, national traditions, form, association, social system.

СПОСОБЫ ФОРМИРОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА ИНТЕРЬЕРОВ ОБЩЕСТВЕННЫХ ЗДАНИЙ

Худоярова М.Б.,

доцент кафедры «Архитектура», Самаркандский государственный
архитектурно-строительный университет

Масаридинова Н.А.,

стажер-преподаватель и независимый исследователь, кафедра «Архитектура»,
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет

Касимова Ф.А.,

Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет

Аннотация

В статье рассмотрены проблемы интеграции функциональности, эстетики и эмоционального воздействия при формировании художественных образов в интерьерах общественных зданий с учётом целостности и пространственных задач. Подробно освещены основы, определяющие композицию интерьера при создании образа, включая функцию, материалы, традиции, национальные обычаи, ассоциации и уникальные способы организации социальных систем и смысловых структур.

Ключевые слова: образ, функция, материал, национальные традиции, форма, ассоциация, социальная система.

Kirish. Jamoat binolari interyerning badiiy obrazi kompozitsiya tamoyilining bosh asosi bo'lib oldindan emotsional reaksiyaga mo'ljallangan, assotsiaviy tasavvurning eng yuqori natijasidan iborat. Binoning interyerini shakllantirishda uning obrazini materialni tanlash, funktsiya, an'anaviylik, milliy an'anaviylik, assotsiyatsiya, va itimoiy obraz aniqlaydi.

Interyerda material fazoviy muhitni, funktsiyaviylikni va fazoni yaratadi. Obraz qurilish asoslarining birlashuvi yo'li bilan (pol, devorlar, ship), moddiy harsalar bilan to'ldirilishishi (mebel, dekor) va funktsiyaviy jarayonlarning dizayn va sanitar normalarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Interyerda funktsiya qulay foydalanish va vazifasini bajarish uchun fazoni, uning ergonomikasini aniqlaydi. Interyer obrazi bino funktsiyasiga, uning egasiga va maqsadli auditoriyaga mos keladigan psixologik va estetik muhitni shakllantiradi. Interyerda an'analar bu davr ruhini va madaniy qadriyatlarini turg'un uslubiy echimlarda -klassik naqshlar, simmetrik kompozitsiyalar va boy bezaklar bilan foydalanish orqali beriladi. Bunda

interyerning obrazi barcha elementlarning (rang,svet,material, mebel) birligi asosida shakllanadigan umumiy ta'ssyrot bo'lib, u binoning maqsadi va maqsadli auditoriyaning xohishiga bo'ysunadi. Jamoat binolarida milliy an'analar arxitekturaviy elementlar, tokchalar, naqshlangan bezaklar va mahalliy materiallardan foydalanishlarni o'z ichiga oladi. Interyerda fazoviy muhit va obrazni yaratish yo'nalishlari: simmetriya, ranglar gammasi, asl nusxasiga qaytishlaridan iborat. Assotsiatsiya – fikrlash jarayonida psixika elemenlari orasida paydo bo'ladigan aloqa natijasida bir elementning ko'rinishi, ma'lum sharoitlarda u bilan bog'langan boshqani obrazineslatadi.Assotsiatsiyaning sub'ektiv vazifasi elemenrlar, moddiy narsalar va paydo bo'lishlar orasidagi bog'lanishdan iborat.

Jamoat binolari interyerida ijtimoiy obraz bu uning jamiyatdagi roli va vazifasini aks etdiradi, hamda foydalanuvchilarda ma'lum darajada idrok qilish va emotsional reaksiyalarni shakllantiradi. Interyer ijtimoiy qadriyatlarni berishga odamlar orasida ijtimoiy aloqalarni bog'lashga xizmat qiladi [1].

Maqsad. Zamonaviy jamoat binolari interyerini shakllantirishdagi elementlarini materiallarini, funktsiya, an'anaviylik, milliy an'analar, assotsitsiya, ijtimoiy obrazlarni, emotsional psixologik muhitni, yaratishi, brendlarni aks etdirishi, funktsiyaviy vazifalarni bajarishni kuchaytirish, xavfsizlikni va qulaylikni ta'minlash nuqtai nazaridan o'rlanish.

Izlanish materialli va uclubi. Interyer obrazini o'rganish materialli arxitektura va dizayn tarixi manba'larini uslubini tahlil qilish, materiallarni, rangni, yorug'lik texnikasini va psixologiyasini o'rganish. Uslubi kompozitsiya vositalari fazoni, shakllarni, teksturalari va rangni mavjud ob'ektlarni fotosuratlar, chizmalar yordamida, hamda funktsional vazifalarni va ularning moddiy fazoviy muhitni shakllanishiga ta'sirini tahlil qilish.


Natija. Jamoat binolari interyerida obrazning shakllanishiga qadim zamonlardan katta ahamiyat berilgan. Binolar va ularning ichki ko'rinishi davlatning ravnaqini, kuchini, qudratini, dunyo miqyosida egallagan o'rnini ramziy aniqlab bergan. Taraqqiyot davomida binolarni obrazlarining shakllanish uslublari ishlab shiqishgan.

Ular aniq davrning texnologiyalari, ijtimoiy tuzilishlari, diniy va vaqt davomida badiiy oqimlarini aniqlab o'ziga xos xususiyatlarini va madaniyatini aks etdirib kelgan [2]. Antik davr-ranglar uyg'unligi, simmetriya, orderly tizim, misol uchun Parfenon (gretsiya), Kolizey (Rim). Roman uslubida og'ir devorlar, yarim tsirkulli arkalar, qullikdorchilik tasnifi, mahobatlilik. Sofiya sobori (Novgorod). Gotika uslubida yuqoriga o'suvchanlik,o'qli arkalar, vitrajlar, yengillik tuyg'usi. Ilohiy Vit sobori (Praga). Renesans- uyg'unlik, simmetriya, nisbiylik, markazlashgan gumbazlar Ilohiy Petr sobori Rim). Barokko -hashamatlilik, egiluvchan chiziqlar,yorug'lik va soya,muhtashamlilik dekorni ko'pligi. Klassitsizm -qat'iylik, simmetriya, antiqlik,ratsionallik.Panteon (Parij), Kazan Cobori (Sankt-Peterburg). Modern tabiiy shakllar, dekorativlik,yangi materiallardan foydalanish, asimmetriya. va boshqala.r Paorama kinoteatri (1964y.), O'zbekiston mehmonxonasi (1974) (Toshkent). (1A,B-rasmlar).Panorama kinoteatri modernizm uslubida qurilgan. Uzaytirilgan foyesi ham modernism uslubiyatida qurilgan. Oynavand galereyasi va

shakllarning engilligi zamonaviylikni bildiradi. Foyening ichkarisidagi yorug'lik va soyaning o'yini, naqshli devorlari sharq arxitekturasida an'analariga moslanib zamonaviylik bilan birgalikda turli arxitekturaviy vositalarning sintezini tadbiq etgan (1-rasm). O'zbekiston mehmonxonasi arxitekturasida evropa va sharq uslublari qollanilgan bo'lib modernizmning orientalism va brutalizm yo'nalishlarida amalga oshirilgan. Modernizm uslubida ishlangan interyerlari monumental can'at asarlari barelyeflar va mozaikali pannolar bilan bezatilgan.

O'zbekistonda tarixiy arxitektura yodgorliklarida obraz binolarning muhtashamligi, ularning mozaika, keramika, tosh va yog'och o'ymakorligi, hamda islom qadriyatlari va davlatning tarixiy merosini aks etdiruvchi naqshlar va yozuvlardan ramziy foydalanishdan iborat. Interyeda yog'ochdan ishlangan o'ymakorlik elementlari, mayolika, qo'lda ishlangan gilamlar, mozaikali pannolar, hamda an'anaviy hayot tarziga mos keluvchi xonalarning rejalarida ko'rinadi. Masalan Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasi serhasham, ajoyib pannolari va o'ymakoplikda ishlangan yog'och elementlariga boyligi interyer obrazini yirikligi va bezaklarning nafisligi bilan ajralib turadi (2-rasm). Amir Olimxonning Yozgi saroyi interyerlarida rang barang naqshli dekorativ elementlar bilan bezaklangan hashamatli xonalari va ganchkorlik o'ymakorligi bilan ishlangan ulug'vor, goyat go'zal qabul xonasi saroy obrazi va uning estetikasini turli uslublarda ifodalagan (3- rasm).





B

1-rasm. A-Panorama kinoteatri va interyerlari; B- O'zbekiston mehmonxohasi va interyeri.
Manba:coocle .dzen. ru; www.gazeta.uz; [<https://www.afisha.uz/ru/gorod/2022/06/modern>



2-rasm. Mirzo Ulug'bek madrasasi.1417-1420yy. Camarqand.Manba:google.meros.uz



3 – rasm.Citorai Moxi-Xosa saroyi interyerlari.Manba: google. www.orexca.com.Nikos Kakoli fotosi.

Interyerda material uslubni, funktsiyaviylikni va fazoviy muhitni aniqlaydi. Uni tanlash xonaning vazifasidan, uslubidan, xohlangan effektdan bog'liq. Interyerning takrorlanmaydigan, uyg'un obrazini yaratishda materialning teksturasini, rangi va boshqa elementlar bilan birlashuvini hisobga olish kerak [3].

Tasnifli materiallar ma'lum bir obrazni yaratadi. Misol uchun shisha, metal va beton xay-tek, minimalistic uslubga, yog'och va tosh eko uslubiga ko'proq to'g'ri keladi.

Yumshoq tekstil matolari hashamlilikni va shinamlilik hissiyotini uyg'otadi. Yog'och va tosh bilan birlashganda eko va "Biofil" uslubida obrazlarni yaratadi.

Yog'ochdan ishlangan tektonik qurilmaning elementlari restoranni interyerida dam olish, bo'shashtiradigan, mamnunlik hissiyotini chaqiruvchi "Biofil uslubidagi betakror fazoviy muhitni yaratgan (4a-rasm). Shisha va silliqlangan metal zamonaviylik va qat'iylik hissini tug'diradi, va minimallistik uslublarda qo'llaniladi

Yorqin va fakturali materiallar fazoda o'suvchanlikni va ko'rsatilishi kerak bo'lgan nuqtalarni yaratishda ishlatiladi.



a



b

4-rasm. a – "Biofil" uslubida ishlangan restoran interyeri. Manba: google;

b- Dohadagi Islom ta'lim markazi machiti. Katar. Manba: google. m.business -gazeta .ru

Interyerda funktsiya, xonadan qanday foydalanishi ko'rsatadi. Interyer obrazi qanday kayfiyatni yaratishni va u foydalanuvchilarning xohishini aks etdiradi. Interyerni obrazi ranglar gammasi, teksturasi, shakli va dekorativ elementlarga asoslangan estetikani ifoda etadi. Dohadagi Islom markaziy universiteti machiti islomning beshta ustunini ramzini bildiruvchi beshta tayanchdan iborat. Bino ko'rinishida to'g'ri chiziqlar juda kam qo'llangan bo'lib yer ustida suzib yurganday tuyuladi. Tilovat qiladigan xonalari keng to'siqsiz fazoviy muhitdan iborat bo'lib shipning egiluvchan shakllariga yulduzli osmonni tasavvur qiladigan yoritgichlar o'rnatilgan va funktsiyaga to'liq javob beruvchi ilohiy kuchga tayanib toat ibodat qilishga chorlaydigan obraz yaratilgan. (3b-rasm) [https://m.business-gazeta.ru/article/599772].

Ijtimoiy tizim interyerning obrazini shakllantirishga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. Normalari va uslubida ko'rinadigan, materiallarda, funktsiyaviylikda va fazoni tashkil qilishda insonning o'rnini, jamiyatning qadriyatlarini aks etdiradi va qayta ishlab chiqaradi.

Ijtimoiy tizim interyer obrazini quyidagi pozitsiyalarda: statuci va nufuzini, madaniy va etnik normalarini, ramziy ahamiyatini, ijtimoiyligi va ro'li, ijtimoiy jarayonning ta'sirini shakllantiradi [1].

4a-rasmda zamonaviy ofisning dam olish zonasi shinam, qulay eko uslubida shakllantirilgan. Shipning qora rangdagi fonida joylashtirilgan yoritgichlar, ochiq kulrang aylanalar va devorning sariq rangi interyerni jonlantiradi. Ofisda o'tadigan bir xil jarayondagi holatni o'zgartiradi va dam olishga imkoniyat beradi. 4b -rasmda dam olish zonasi texnoparkning tasnifiga mos yo'nalishda ishlangan. Shipdagi shakllar, yoritgichlarning joylashtirilishi, texnik elementlari, texnoparkning obrazini shakllantirgan.



4 -rasm. a-Ofisning dam olish zonasi. Manba:google. <https://shere.google> FFSQ1xMsEOhhSOaud; b- Kovorking texnopark interyeri.Nagatino. Manba:google.<https://stroj-news.ru/articles/interyer-obschestvennogo-zdaniya/>

Xulosa. Jamoat binolari interyerida badiiy obrazlarni shakllantirish funktsiyaviylikni, estetikani, emotsional ta'sirni yaxlit va fazoni fazifasiga mos ravishda integratsiyalash orqali erishiladi. Interyerning obrazini yaratishda funktsiya, material, an'anaviylik, milliy an'analar, assotsitsiya, ijtimoiy tizim betakror usul va ma'noviy tuzilishini tarkibini aniqlabchi asos bo'lishi ko'rib chiqildi. Bunga bezaklash materiallari, jihozlar, yorug'lik, dekorativ elementlarning yaxlit stilistikasi va goyasini uyg'un birlashtirish orqali erishiladi. Buning uchun badiiy obrazni yaratish kontseptsiasining yaxlitligini, kompozitsiya elementlarini, arxitekturaviy shakllar va dekorativ uslublardan maqsadli foydalanishni chuqur bilish talab qilinadi. Misol uchun ma'muriy binolarda zamonaviy va o'suvchan fazoni yaratish uchun industriya elementlari bilan loft elementlarini birlashtirib foydalanish mumkin.

Restoranlar, kafelar, choyxonalarda oshxona va maqsadli foydalanuvchilarga bo'langan holda minimalizm, futurizm, "Biofil", eko va milliy usullarda qo'yilgan maqsadga mos keladigan fazoviy muhitni yaratish kerak bo'ladi.

Interyerning badiiy shakllanishining kelajakdagi yo'nalishlari kompozitsiyani yaratish uchun, va fazoni tashkil qilish uchun fokusli nuqtalar va aktsentlardan

foydalanish va ichkariga yo'naltirish va kayfiyatni shakllantirish uchun, hamda ularga ko'nikish va aniq uslubni tanlash uchun ranglar va teksturalarni boshqarish, birlik, muvozanat, ritm, mutanosiblikni kiritadi.

Zamonaviy tendentsiyalar: emotsional idrok qilish, o'ziga xoslik, uslub birligi jamoat binolari interyerlarida badiiy obrazlarni yaratishda muhim ro'lni o'ynaydi.

Adabiyotlar:

- 1.Краснова Т.В. Социальный дизайн как средство создания коммуникативной воспитательной среды. Научные труды SWorld. 2012 Т.11.№1. С26-30.
- 2.Лауэр Д. Основы дизайна / Д.Лауэр, С.Пентак. - Санкт-Петербург.Питер ,2018
- 3.Худойарова М.В.Интерьер ва jihozlar. "TURON NASHR". Samarqand, 2023
- 4.Фрилинг П., Ауэк К. (FRG)Перевод О.Гавалов Человек-цвет-пространство. – М.:Стройиздат,1973.—118с.

Электронный ресурс, internet: [http://www.turkarammamotoiri..com/ru/ассоциация-\(психология\)-175676.html](http://www.turkarammamotoiri..com/ru/ассоциация-(психология)-175676.html);
[<https://www.afisha.uz/ru/gorod/2022/06/modernism>].